
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TAQLIDIY SO'ZLARNING USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI

Haydarov Anvar Askarovich
(Buxoro davlat universiteti professori)

Alimova Mubina Murodjon qizi
(I bosqich magistranti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada taqlidiy so'zlar va tovushlar uslubiy jihatdan tahlil qilinib, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy-ifodaviy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Maqola taqlidiy so'zlar va tovushlar qo'llanilgan shakllarining tahlilini taqdim etadi va ularning badiiy-ifodaviy xususiyatlari haqida tushunchalar beradi. Ingliz tilida taqlidiy so'zlar va tovushlar adibning tilida ijodiy ifodaviy vositalar sifatida ishlatiladi, shuningdek, o'zbek tilida ham shaxsning ma'naviy aloqasini ifodalashda muhim rollarni o'zlashtiradi.

Kalit so'zlar: poetik nutq, qo'ng'iroqlar, alliteratsiya, pauza, uslubiy vaziyat

СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОХОЖИХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хайдаров Анвар Аскарлович
(профессор Бухарского государственного университета)

Алимова Мубина Муроджон қизи
(магистрант I курса)

Аннотация: В данной статье методически анализируются подражательные слова и звуки, а также приводятся сведения об их художественно-экспрессивных особенностях в английском и узбекском языках. В статье представлен анализ форм используемых подражательных слов и звуков, даны представления об их художественно-экспрессивных особенностях. В английском языке подражательные слова и звуки используются как творческие средства выразительности в языке писателя, а также в узбекском языке они играют важную роль в выражении духовной связи человека.

Ключевые слова: поэтическая речь, призывы, аллитерация, пауза, стилистическая ситуация.

STYLISTIC CHARACTERISTICS OF SIMILAR WORDS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Haydarov Anvar Askarovich,
(professor at Bukhara State University)

Alimova Mubina Murodjon qizi
(1st year Master student)

Abstract: This article methodically analyzes imitative words and sounds, and also provides information about their artistic and expressive features in the English and Uzbek languages. The article presents an analysis of the forms of imitative words and sounds used and gives insights into their artistic and expressive features. In English, imitative words and sounds are used as creative means of expression in the language of the writer, and also in Uzbek, they play an important role in expressing the spiritual connection of a person.

Key words: poetic speech, appeals, alliteration, pause, stylistic situation.

Kirish. Tilda emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi vositalar turli xil bo'lib, ulardan biri Onomatopiya-ya'ni tovushga taqlid so'zlardir. Badiiy matnda emosional-ekspressivlikni ta'minlashda onomatopeyalarning ahamiyati juda katta. "Onomatopeya"-poetik nutqda she'r yoki nasrdagi tovush xodisalariga badiiy taqlid qilish usulidir.

Onomatopeya grekcha "onomatopedia" -nom hosil qilish, "onoma"-nom, poieo-yasayman, qilaman. Hayvon, qush tovushlari va tabiiy tovushlarga taqlidan so'z hosil qilish, deb ta'rif berilgan.

Dolzarlighi. Ingliz tili va o'zbek tillarida uslubiy o'ziga xosligi bir-biridan farq qiladi va har bir tilda o'z ta'siri bilan foydalaniladi. Ingliz tilida taqlidiy so'zlar ingliz tilining grammatikasi, so'z ortishi va tushunchalari asosida ishlatiladi, bu esa ularni ingliz tilini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida esa, taqlidiy so'zlar o'zbek tilining tuzilishi, qoidalar va ma'noni ifodalash usullari bo'yicha taniladi. Shuningdek, har bir tilning madaniy va tarixiy xususiyatlari ta'siri bilan taqlidiy so'zlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Onomatopeya tasvirlanayotgan narsaning tovushga yoki fonetik taqlidini bildiradi. Masalan, hayvonlarning tovushiga taqlidni bildiruvchi so'zlar – "vov-vov"-itlarda, "miyov-miyov"-mushuklarda, "mo-mo" -sigirlarning tovushlariga taqlid so'zlar hisoblanadi. I.R.Galperin onomatopeyalarni 2 guruhga bo'ladi: o'z va ko'chma ma'noli

O'z ma'nosidagi onomatopeyalardagi so'zlar tabiiy tovushlarni ifoda etib, turli darajalarni ko'rsatadi. Jumladan, hayvon va qushlar ovozigaga taqlid so'zlar: to buzz, to mew.

Ushbu so'zlar metaforalashtirilgan bo'lib, ular inson nutqini boyitadi. O'z ma'nosidagi onomatopeyalar shunday so'zlarni o'z ichiga oladiki, bular tovushlarga tabiiy taqlidni ifodalaydi.

Masalan, ding-dong, buzz, bang, cuckoo, tintinnabulation, mew, ping-pong, roar.

Yuqorida keltirilgan taqlidiy so'zlar emotsionallikni ifodalaydi, jumladan, ding-dong qo'ng'iroq tovushining davomli jiringlashini ifodalaydi. Bunga misol qilib Edgar Poning quyidagi she'rini keltiramiz:

-Hear the loud alarum bells,
Brazen bells
What a tale of terror, now, their turbulence tells!
In the startled ear of night
How they scream out their affright!
Too much horrified to speak,
They can only shriek, shriek,
Out of tune...
How they clang, and clash, and roar!
What a horror they outpour
On the bosom of the palpitating air!
Yet the ear it fully knows,
By the twanging, and the clanging,
How the danger ebbs and flows.

("The Bells" by Edgar Allan Poe)

Yuqoridagi she'rda onomatopik birliklar juda ko'p qo'llanilgan bo'lib, unda 4 xil qo'ng'iroqlar: "loud alarum bells", "silver bells", "mellow golden bells", "iron bells" tasvirlangan. She'rning har bir misrasida shoir ushbu qo'ng'iroqlar tovushini ifodalovchi turli onomatopik so'zlardan o'rinli foydalangan va ushbu vosita orqali she'rning ta'sirchanligini oshirgan.

Jumladan, silver bells (kumush qo'ng'iroqlar)ga nisbatan "jungle" va "tinkle" so'zlari bo'lib, ular yengil zavqli tovushlarni ifodalaydi.

"Mellow wedding bell" esa "gush of euphony" iborasi orqali ifodalangan.

She'r misralaridagi "shriek, clang, roar, twanging, clanging" kabi so'zlar xavotirli va notinch

vaziyatni ifodalash maqsadida shoir tomonidan qo'llanilgan.

Shuningdek, taqlidiy so'zlardan hajviy va satirik vaziyat yaratishda ham adiblar foydalanganlar. Komik yozuvchi Roy Kreyn she'rlarida ushbu san'atdan foydalanib, misralar yaratganligini ko'rish mumkin:

Ker-splash and lickety-wop.

Ariel:

Hark, hark

Vow-vow

He watch-dogs bark,

Vow-vow

Hark, hark, I hear

She strain of strutting chanticleer

Cry cock a didle-dow.

Yuqorida keltirilgan she'riy parchada esa Ariel obrazini yaratishda V. Shekspir onomatopeyadan unumli foydalanganligini ko'ramiz.

Ko'chma ma'noli onomatopeyalarda esa tovushlarga taqlid biror vosita orqali amalga oshiriladi va o'shanga taqlid qilinadi, ingliz tilida bu hodisa "echo-writing" deyiladi.

Masalan, "and the silken, sad, uncertain rustling of each purple of the rustling of the curtain".

Yuqoridagi parchada "s" tovushining takrori deraza pardasining sharpasini eslatadi:

Afrika bo'ylab soldat-askarlarning marsh qilishi oqibatida paydo bo'ladigan tovush quyidagi misolda ko'rsatilgan.

We are foot-slog-slog-slog-slogging,

Foot-foot-foot-foot-slogging over Africa

Boots-boots-boots-boots-

Moving up and down again. (R. Kipling)

Ko'chma taqlidiy so'zlar alliterasiyadan farqli o'laroq, tovush takrori orqali amalga oshadi. Quyidagi inglizcha she'riy parchada shamolning esishi "w" tovushini takror qo'llash orqali ifodalangan:

Whenever the moon and stars are set,

Whenever the wind is high

All night long with dark and wet

A man goes riding by. (R. S. Stevenson).

Shunday holatni o'zbek tilida ham uchratamiz. "Sh" tovushining tabiatan shovqinli ekanligiga e'tibor qaratilib, shovqinli xarakter anglashiladi.

Shovqinlar shoshadir chirmab olmakka,

Sirmab tortaverar umr shamoli.

Xakkaday xakkalab o'taverar vaqt,

Qarib qolmoqdamiz, birga ayolim. (A. Qutbiddin)

Nutqda tovush shakllanishi badiiy ifodaviy xususiyat kasb etadi, muayyan uslubiy vazifa bajaradi, tilning tovush tuzilishidagi u yoki bu elementlarning nasriy yoki she'riy matnda (unli va undosh tovushlar, urg'uli va urg'usiz, pauza, intonasiyaning turli xillari, sintaktik qurilmalar, so'zlar takrori) qo'llaniladi.

Nutq tovushlari badiiy tasvirda o'zining asosiy vazifasidan tashqari emotsional-ekspressiv va appelyativ (eshitib ta'sirlanish) xususiyatiga ega. Tovushlar ham biror obraz yaratishda vosita yoki o'zlari ham obraz bo'la oladi. She'riy til uchun tovush bilan holat o'rtasidagi munosabat bo'lishi emotsional ta'sir kuchini oshiradi. Tovush orqali keltirilgan his-tuyg'u she'r ma'nosining beradigan hayajonga zid bo'lmasligi lozim. Shu sababdan tovushlar vositasida yaratilgan emotsionallik va obrazlilik she'rni o'qishda o'quvchini zeriktirmaydi, aksincha unga zavq beradi.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Ravshan" dostonida tovushlar yordami bilan poetik obraz yaratgan. Bunga asosan poetik obraz yaratishning biri hisoblangan taqliddan unumli foydalanilgan.

Masalan,

Hasanxonning bir oti,
Qopdi pechkanday bo'ldu
Bir nayza Hasanxonni
Xuddi chaqqanday bo'ldu
Qoraxon shonning chirog'i
Shu kun o'chganday bo'ldu.

Ingliz va o'zbek tillarida tovushga taqlid so'zlarni 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Turli predmetlar, mashina, apparatlardan chiqadigan ovozlari: taraqlamoq, chiyillamoq, g'ijirlamoq;
2. Tabiat xodisalaridan shamol, yomg'ir, bo'ron bilan bog'liq: momaqaldiraq;
3. Inson va hayvonlar tomonidan hosil qilinadigan ovozlari: shivirlamoq, pishillamoq, mo'ramoq;

Tovush va mazmun aloqadorligi tovushlar moslashishi asosida yuzaga chiqadi. Alliterasiyaga asoslangan tovushlar avval zikr etilgan yoki qayd etilmagan muayyan kalit so'zlarga ishora qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, tovushlar tabiati milliy mentalitet asosida yuzaga chiqadi, chunki o'zbeklarga xos an'ana, urf-odatlariga mos kelmasligi, ularda boshqa kasb etishi mumkin. Tovushlarning tovlanishi, matn qurshovi va sharoitiga bog'liq holda tushuniladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. -T.: 1979. -B. 215
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -T.: O'qituvchi. 1985. -B. 64
3. Galperin I.R. Stylistics. M.: Higher school. 1977. -P. 124-125
4. Tursunova O. Onomatopeyalarning emotsional-ekspressiv vazifalari. O'zbek tili va adabiyoti. 2012. №5. -B. 99-101.